

QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR  
SOCIAL STUDIES

## MILLIIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIIY TARMOQLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR

*Ashirova Jayron Altiboyevna*

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti psixologi*

*XALQARO NORDIK UNIVERSITETI MUSTAQIL IZLANUVCHISI*

*O‘zbekiston, Toshkent shahri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy qadriyatlarning saqlanishi va ularning ijtimoiy tarmoqlardagi ta'siri tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar milliy qadriyatlarni targ'ib qilish va ularni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi, biroq, ular orqali ma'naviy-intelektual tahdidlarga ham duch kelish mumkin. Maqolada milliy qadriyatlarning ijtimoiy tarmoqlardagi ifodalanishi, ularga tahdid soluvchi omillar va muammolar tahlil qilinadi hamda yechimlar taklif etiladi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning insonlarga, xususan, yoshlarga salbiy ta'siri, milliy qadriyatlarga zid keluvchi va davlatning mafkuraviy xavfsizligi bilan bog'liq bo'lgan bu hodisaga qarshi turish yo'llari o'rganilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** aksiologiya, ijtimoiy tarmoqlar, internet, qadriyatlar, mafkuraviy xavfsizlik, tarbiya, yoshlar.

### Kirish

O‘zbek milliy qadriyatlari xalqimizning tarixi, madaniyati va an'alariga asoslangan bo'lib, asrlar davomida shakllangan. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan va odamlarning fikrlash tarzi, hayotiy qadriyatlariga ta'sir ko'rsatmoqda.

Axborot texnologiyalari rivojlangan sari ijtimoiy tarmoqlar milliy qadriyatlarni saqlash yoki ularning yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, ushbu maqolada milliy qadriyatlarning ijtimoiy tarmoqlarda qanday aks etishi, ularning buzilishiga olib keluvchi omillar va bu jarayonda vujudga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi.

### Adabiyotlar tahlili

Milliy qadriyatlar bo'yicha ilmiy manbalar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli axborot vositalari an'anaviy madaniyatga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning milliy o'zlikni mustahkamlashdagi o'rni ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan ijobiy baholansada, ularning salbiy oqibatlariga ham e'tibor qaratilgan. Xususan, quyidagi jihatlar ajratib ko'rsatilgan:

- Milliy qadriyatlarning ijtimoiy tarmoqlarda noto‘g‘ri talqin qilinishi;
- Globalizatsiya natijasida milliy o‘zlikka begona madaniyatlarning ta’siri;
- Internet orqali yoyilayotgan axborotlarning filtrlanmasligi natijasida milliy an’analar yo‘qolish xavfi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishda raqamli platformalarning roli va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish usullari bo‘yicha tavsiyalar berganlar.

### **Tadqiqot metodlari**

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Kontent tahlil: Ijtimoiy tarmoqlardagi milliy qadriyatlar bilan bog‘liq kontentlar o‘rganildi, ularning turli ommaviy axborot vositalari orqali qanday talqin qilinayotgani tahlil qilindi.
- So‘rovnoma: Yoshlar va katta yoshdagi fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatni o‘rganish uchun so‘rovnomalar o‘tkazildi.
- Taqqoslash usuli: O‘zbek milliy qadriyatlari va boshqa xalqlarning qadriyatlari ijtimoiy tarmoqlarda qanday aks etishi o‘rganilib, ularning o‘zaro ta’siri tahlil qilindi.

### **Natijalar**

Qadriyatlar (yoki qadriyatlar tizimi) ilmiy kategoriyalardan biri bo‘lib, u bir necha fanlar vakillari tomonidan turli aspektlarda o‘rganiladi. Jumladan, qadriyatlarning shakllanishi va yoyilishiga ommaviy axborot vositalarining, ta’limning va globallashuvning ta’siri masalasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda<sup>51</sup>.[] Shunga qaramay, ushbu mavzu bilan bog‘liq barcha masalalar yaxshi o‘rganilgan, deb bo‘lmaydi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar orqali deviant hulq-atvorni targ‘ib qilish yo‘llari, bunday targ‘ibotning ta’sirchanligini oshiruvchi omillar, bunga qarshi samarali kurash usullari singari savollar yetarlicha chuqur va har tomonlama ochib berilmagan. Ijtimoiy tarmoqlarning qadriyatlar transformatsiyasi va yangi qadriyatlar paydo bo‘lishidagi o‘rni ham mana shunday kam o‘rganilgan va ayni paytda, dolzarb mavzulardan hisoblanadi.

Internet, xususan, ijtimoiy tarmoqlar undan foydalanuvchilarga axborot va bilim olish, keng miqyosda aloqalar o‘rnatish, maslakdoshlar topish kabi katta imkoniyatlar va afzalliklar berishi yaxshi ma’lum. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar qator xavfli jihatlariga ham ega. Bu fikr yosh avlodga nisbatan ayniqsa o‘rinlidir. Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarni o‘z joniga qasd qilishga, bepushtlikka, giyohvand moddalarni iste’mol qilishga, diniy va mistik sektarlarga a’zo bo‘lishga da’vat etuvchi zararli ma’lumotlar ko‘plab topiladi. Bundan tashqari, internetda ko‘p vaqt o‘tkazish umrni behuda sarflash, real dunyodan uzilib qolish, ijtimoiylashuv ko‘nikmalarini yo‘qotish, ruhiy xastaliklarga chalinish, firibgarlar tuzog‘iga tushib qolish singari o‘ta salbiy va hatto xavfli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Zo‘ravonlikni yoki gedonizmni targ‘ib qilish, pornografiyani tarqatish kabi holatlar ham asosan ijtimoiy

---

<sup>51</sup> Беликова Е.К. Система ценностей как предмет научного познания // Сервис plus. – 2024, том 18, № 1. Стр.17

tarmoqlarda amalga oshiriladi<sup>52</sup>. Bular esa, o‘z navbatida, davlatning mafkuraviy xavfsizligiga putur yetkazishi, davlat va jamiyat taraqqiyotini orqaga surishi muqarrar.

Internet rivoji, u berayotgan imkoniyatlar o‘ziga xos qaramlikni ham keltirib chiqarmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internetdan foydalanuvchilarning taxminan 10 foizi unga mustahkam bog‘lanib qolgan<sup>53</sup>.

Avvalo shuni e’tirof etish lozimki, internetdan butunlay voz kechish, undan foydalanishni cheklash umuman kun tartibida turmasligi kerak. Hozirgi davrda kundalik turmushni, kasbiy faoliyatni, iqtisodiyotni, madaniyatni, umuman hayotni ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa yoshlarning internet bilan bog‘liqlik darajasi nihoyatda yuqori. Zotan shuning uchun ham tarmoq makonida shakllanadigan va targ‘ib qilinadigan ma’nolar, qadriyatlar va tasavvurlar oflayn makondagi yoshlarning hulq-atvorlariga, o‘zini tutishlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sirni yuzaga chiqaradiganlar esa mashhur bloggerlar va muayyan maqsadni ko‘zlab faoliyat olib boruvchi anonim ijodkorlar hisoblanadi. Yoshlar bunday ta’sirga g‘oyatda moyil bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlarda ommalashgan hulq-atvor modellariga ko‘pincha o‘zlari anglamagan holda amal qiladilar.

Ijtimoiy tarmoqlardagi yoshlar kontentini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar bu kontentning katta qismi an’anaviy oila haqidagi tasavvurlarga mutlaqo mos kelmaydigan qadriyatlarga ega ekanligini ta’kidlab, xavotir bildirmoqdalar. Mazkur kontentlarda kam bolalik yoki farzand tug‘ishdan to‘liq voz kechish, agar u individual baxtga to‘sqinlik qilsa, ajralishga yo‘l qo‘yish, nikohning turli noan’anaviy shakllari kabi milliy qadriyatlarimizga zid qarashlar tashviq qilinadi.

Muammoning mavjud va ehtimoliy yechimlari haqida to‘xtalar ekanmiz, uni yanada chigallashtiradigan omilni qayd etishimiz maqsadga muvofiqdir. U shundan iboratki, internetni nazorat qilish juda mushkul vazifa. Turli sabablarga ko‘ra, monitoring qilish va bloklash kabi amallar har doim ham kutilgan natija bermaydi. Demak, bu ijtimoiy muammoga qarshi kurashning alternativ vositalarini topish, kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

Birinchi navbatda an’anaviy ommaviy axborot vositalarida hamda ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda foydali va qiziqarli kontent yaratish ustida doimiy g‘amxo‘rlik qilish, buning uchun tegishli sharoit yaratib berish katta ahamiyatga ega. “Fuqarolarning ma’naviy–ma’rifiy darajasi yesa o‘z navbatida jamiyatning umumiy holatini o‘zgartiradi”<sup>54</sup>. Zero, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy–falsafiy tafakkurni shakllantirishdagi o‘rni beqiyosdir. Mazkur “to‘g‘ri” kontent yoshlarni o‘ziga jalb qila olsa, ularda shubhali, yot manbalarga murojaat qilishga ehtiyoj kamayadi yo umuman qolmaydi. Basharti unda zararli kontent asosli tanqid qilinsa va uning salbiy mohiyati ochib berilsa, nur ustiga nur bo‘ladi.

<sup>52</sup> Yuldasheva M.Q. Axborotlashgan jamiyatda ma’naviy xavfsizlik masalalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018;

<sup>53</sup> Lutfullayev A., Jabborov E. Ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi ta’siri hamda axborot xurujlari // Academic research in educational sciences. – 2021, vol. 2, issue 4. – 643-bet.

<sup>54</sup> Nasimov A.A. Axborotlashgan jamiyatda ahloqiy qadriyatlarning axborot hurujlarini oldini olishdagi o‘rni // Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2023, №3. 72-bet.

An'anaviy oilaviy qadriyatlarga sodiqlik va yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadigan vaqtlari o'rtasida aniq bog'liqlik kuzatiladi: yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda qancha ko'p vaqt o'tkazsa, u oila va an'anaviy nikoh qadriyatlariga shunchalik kam ustuvorlik berishga tayyor bo'ladi va shaxsiy muvaffaqiyat, martaba, moddiy farovonlik, ko'ngilxushlik va qiziqarli dam olish qadriyatlariga ko'p e'tibor beradi. Odatda ijtimoiy tarmoqlar odamlar uchun o'ziga xos yupanchga aylanadi. Yaqinlarining e'tibori va qo'llab-quvvatlovchisiz qolgan yoshlar bu narsalarni ijtimoiy tarmoqlardan izlaydi va topadi. Binobarin, muammoning yechimlaridan biri oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashda, ularni keng va doimiy targ'ib etishda, yoshlarga oilada e'tiborli bo'lish va ularni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashdadir.

Har xil platformalarda, ta'lim dargohlarida, tashkilotlarda muntazam ravishda vebinar va seminarlar tashkil qilib, ularda yoshlarga muammo yuzasidan kerakli ma'lumot va bilim berilsa, foydadan xoli bo'lmaydi. Chunonchi, ularga notanish odamlardan fayllarni qabul qilmaslik, shubhali havolalarni ochmaslik kerakligini, chunki buning natijasida kompyuterga virus yuqishi mumkinligini uqtirish joiz. Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarning foydalanuvchilarga destruktiv ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini psixologlar, kriminalistlar, pedagoglar va boshqa soha vakillari o'rganmog'i va tegishli tavsiyalar bermog'i lozim.

### **Munozara**

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish uchun tizimli yondashuv zarur. Davlat siyosati, madaniy tashkilotlar va ta'lim muassasalarining faol ishtiroki talab etiladi. Shuningdek, blogerlar va ijtimoiy tarmoq yetakchilarining milliy qadriyatlarni ommalashtirishdagi roli oshirilishi kerak.

Bundan tashqari, internetda tarqatilayotgan axborotlarning sifati ustidan nazoratni kuchaytirish, milliy qadriyatlarga oid kontentlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish zarur.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin, biroq bu jarayonni nazorat qilish va yo'naltirish zarur. Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi maxsus platformalar yaratish.

Yoshlar uchun milliy qadriyatlar asosida kreativ kontentlar ishlab chiqish.

Davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi axborot kampaniyalarini yo'lga qo'yish.

Blogerlar va ijtimoiy tarmoq yetakchilarini milliy qadriyatlarni ommalashtirishga jalb qilish.

Internet madaniyati va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtiruvchi tadqiqotlarni rivojlantirish.

Ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarni saqlashga qaratilgan qonunchilik bazasini takomillashtirish.

Shu orqali ijtimoiy tarmoqlarning milliy qadriyatlar uchun xavf emas, balki ularni mustahkamlovchi vosita sifatida namoyon bo'lishiga erishish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Eshbekov B.N. Jamiyatda ijtimoiy–falsafiy tafakkurni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining roli. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2023.
2. Lutfullayev A., Jabborov E. Ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi ta’siri hamda axborot xurujlari // Academic research in educational sciences. – 2021, vol. 2, issue 4. – 639–645-betlar.
3. Nasimov A.A. Axborotlashgan jamiyatda ahloqiy qadriyatlarning axborot hurujlarini oldini olishdagi o‘rni // Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2023, № 3. 70–74-betlar.
4. Yuldasheva M.Q. Axborotlashgan jamiyatda ma’naviy xavfsizlik masalalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
5. Беликова Е.К. Система ценностей как предмет научного познания // Сервис plus. – 2024, том 18, № 1. Стр.13–20.